**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**«TASDIQLAYMAN»**
**Termiz davlat universiteti**
**o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor**
**_________ prof. R.N.To‘rayev**
**2024 yil“____”_________**

*Ro‘yxatga olindi: № BD-60530400-2.06*
2024 yil “ 26 ” 06

# SURXONDARYO GEOGRAFIYASI FANINING

# O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 500000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika |
| **Ta’lim sohasi:** | 530000 – Fizika va tabiiy fanlar |
| **Ta’lim yo’nalishi:** | 60530400 – Geografiya |

**Termiz-2024**

| Fan/modul kodi<br>SUGB304 | O'quv yili<br>2024-2025 | Semestr<br>6 | ECTS - Kreditlar<br>4 | |
|---|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi**<br>Tanlov | **Ta'lim tili**<br>O'zbek/rus | | **Haftadagi dars soatlari**<br>4 | |
| **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** | |
| **Surxondaryo geografiyasi** | 60 | 60 | 120 | |

1.

### I.FANNING MAZMUNI

Fanni o'qitishdan maqsad- talabalarda Surxondaryo viloyatning tabiiy va iqtisodiy geografiyasi bo'yicha kompleks bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir.

Fanning vazifasi- talabalarga Surxondaryo viloyat tabiatini shakllantiruvchi eng muhim omillar, viloyatning tabiiy sharoiti va boyliklaridan xo'jalikni rivojlantirishda foydalanish, xo'jalikni tarmoqlar tarkibi, hududiy tashkil etilishi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rgatishdan iborat.

2.

### II. ASOSIY NAZARIY QISM (ma'ruza mashg'ulotlari)

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu: Viloyatning geografik o'rni, maydoni va chegaralari**

Surxondaryo viloyatining geografik o'rni, chegaralari. Viloyatning Respublikada tutgan o'rni va unga bog'liq holda shakllangan tabiiy sharoiti. Viloyatni maydon jihatdan xorijiy davlatlar bilan taqqoslash. Surxondaryo viloyati tabiatining o'rganilish tarixi.

**2-mavzu: Surxondaryo xududining geologik tuzilishi, relyefining xususiyatlari, foydali qazilmalari**

Yer yuzasining geologik tuzilishi. Hududning tarkib topish tarixi. Hududda yuz bergan tog' hosil qilish jarayoni. Gertsen va Alp tog' burmalanishlari. Neotektonik harakatlar xarakteri. Viloyat hududining orografiyasi va relyefi, relyef hosil qiluvchi omillar. Foydali qazilmalari

**3-mavzu: Iqlimi, agroiqlim xususiyatlari**

Iqlimi. Iqlim hosil qiluvchi asosiy omillar tahlili. Geografik o'rnining quyosh radiatsiyasi taqsimlanishidagi roli. Iqlimga ta'sir ko'rsatuvchi havo massalari, atmosfera frontlari.

Yer yuzasi holatining iqlimga ta'siri, havo harorati va yog'inlarning xududiy taqsimlanishi, yanvar va iyul oylari izoterma chiziqlarining tahlili. Iqlim resurslari.

**4-mavzu: Viloyatning ichki suvlari**

Yer usti va yer osti suvlari, ularning hosil bo'lishi. Daryolarning to'yinishi va suv rejimi. Loyqalik darajasi. Ichki suvlarining hudud bo'ylab taqsimlanishi ko'llar va suv omborlari, yer osti suvlari. Suv resurslaridan oqilona foydalanish

**5-mavzu: Viloyatning tuproqlari, ularning tasniflanishi va xususiyatlari**

Tuproqlarning xudud bo'ylab tarqalishida geografik kenglik va balandlik mintaqalanish qonuniyatlari. Tekisliklarning zonal tuproqlari. Tog'li xududlar tuprog'i. Sho'rlanish jarayoni. Tuproq eroziyasi. Tuproq qoplamini muhofaza qilish.

**6-mavzu: Viloyatning o'simlik dunyosi**

O'simliklarning xudud bo'ylab tarqalishida geografik kenglik va balandlik mintaqalanish qonuniyatlari. Ularning turlari. Cho'l, adir, tog', yaylov mintaqalarining o'simlik qoplami.

**7-mavzu: Viloyat hayvonot dunyosi**

Viloyat hayvonot dunyosining tabiiy sharoitiga moslashuvi. Hayvon turlari va ularning tarqalish xususiyatlari.

**8-mavzu: Viloyat tabiatini muhofaza qilish**

Viloyatda tabiatni muhofaza qilish, atmosfera, yer va suv hamda biologik resurslardan oqilona foydalanish masalalari. Viloyatning alohida muhofaza qilinadigan (qo'riqxona) hududlari. Surxondaryo viloyati tabiat yodgorliklari

**9-mavzu: Aholisi va mehnat resurslari**

Viloyat aholisining joylashishi, aholi soni. Aholi sonining tumanlar aro keskin farqi, zichligi, etnik kelib chiqishi. Viloyatda tabiiy o'sish va o'lim ko'rsatkichlari. Aholi migratsiyasi, milliy va jinsiy tarkibi. Mexnat resurslari. Viloyat aholisining bandlik darajasi, mexnat resursi bilan ta'minlanish darajasi. Aholini ish bilan ta'minlash muammolari.

**10-mavzu: Viloyat xalq xo'jaligi. Sanoati**

Viloyat xalq xo'jaligi, uning tarkibiy qismi. Xalq xo'jaligining muhim sohalari. Viloyat xalq xo'jaligining respublika va MOD iqtisodiyotida tutgan o'rni.

Viloyat sanoatining xalq xo'jaligida tutgan o'rni. Tumanlar aro iqtisodiy taraqqiyotining xususiyatlari. Sanoatning rivojlanish asoslari. Viloyatda muhim sanoat tarmoqlari, ularning viloyat iqtisodiyotida ulushi.

**11-mavzu: Viloyat qishloq xo'jaligi**

Viloyat qishloq xo'jaligi, uning xalq xo'jaligidagi yetakchi o'rni. Viloyat qishloq xo'jalik geografiyasi, uning tarmoq tuzilishida yuz bergan o'zgarishlar, Viloyat qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tarmoqlari: Dexqonchilik va chorvachilik.

**12-mavzu: Viloyat dehqonchilik geografiyasi**

Dehqonchilikning viloyat qishloq xo'jaligi va viloyat iqtisodiyotida tutgan o'rni. Tarmoqlar tarkibi va rivojlanishi xususiyatlari. Texnika ekinlari (paxta,), g'allachilik, bog'dorchilik-uzumchilik, sabzavot-polizchilik, kartoshkachilik, moyli ekinlar va yem-hashak ekinlari yetishtirish. Qishloq xo'jaligi ekin maydonlari va mahsulot yetishtirishning mintaqaviy xususiyatlari.

**13-mavzu. Viloyat chorvachilik geografiyasi.**

Chorvachilikning viloyat xo'jaligidagi ahamiyati. Chorvachilik tarmoqlarining joylashuviga ta'sir etuvchi omillar. Chorvachilikni tarmoqlar tarkibi. Qoramolchilik, qo'ychilik va echkichilik, qorako'lchilik, parrandachilik, cho'chqachilik, baliqchilik, pillachilik va boshqa tarmoqlar. Sut-go'sht, go'sht-sut va jun chorvachiligi. Chorva hayvonlari bosh soni va chorvachilik mahsulotlari yetishtirishning viloyat tumanlari bo'yicha taqsimlanishi

**14-mavzu: Viloyat transporti**

Viloyat xalq xo'jaligining muhim tarmog'idin biri transport tarmog'i ekanligi. Uning rivojlanish darajasi. Viloyat iqtisodiyotiga unda ishlab chiqarish kuchlarning joylashishi va rivojlanishiga ta'siri. Transportning tashqi iqtisodiy, texnikaviy, savdo sotiq va madaniy aloqalarda ahamiyati. Viloyatda hozirgi zamon transport turlari. Mustaqillik yillaridagi tub o'zgarishlar.

**15-mavzu: Xizmat ko'rsatish tarmoqlari**

Viloyat xizmat ko'rsatish tarmoqlarining hududiy joylashishi va rivojlanishi, xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy tashkil etilishiga ta'sir etuvchi tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy omillar.

## III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (list of seminar topics)

**Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Surxondaryo viloyati ma'muriy-hududiy tuzilishini o'rganish
2.Surxondaryo viloyati tabiiy sharoiti va resurslarini tahlil qilish
3. Surxondaryo viloyatining iqlimi, agroiqlim xususiyatlari o'ranish va tahlil qilish
4. Surxondaryo viloyatining ichki suvlari.
5. Surxondaryo viloyatining tuproq qoplami
6. Surxondaryo viloyatining o'simlik va hayvonot dunyosi.
7. Surxondaryo viloyatining tabiatini muxofaza qilish tahlil qilish.
8. Surxondaryo viloyati aholisining joylashuvini tumanlar va qishloq qaholi punktlari bo'yicha tahlil qilish (aholi zichligi misolida)
9. Surxondaryo viloyati sanoatning tarmoqlar va hududiy tarkibidagi o'zgarishlarni o'rganish
10. Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik xaritasini tahlil qilish
11. Surxondaryo viloyati bo'yicha asosiy dehqonchilik ekinlari yetishtirishni o'rganish
12. Surxondaryo viloyati bo'yicha chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni statistik tahlil qilish
13. Surxondaryo viloyati transport turlari bo'yicha yo'llar uzunligi, yuk va yo'lovchi tashishni geografik tahlil qilish
14. Surxondaryo viloyatining ijtimoiy infratuzilma salohiyatini tahlil qilish
15. Surxondaryo viloyati istiqbollari va muammolari o'rganish va tahlil qilish.

## IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR (Independent study and independent work)

Mustaqil ta'lim ma'ruza, amaliy mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriq savollarini o'z ichiga oladi.

1. Surxondaryo viloyati tabiatining o'rganilish tarixi.
2. Jarqo'rg'on tumani umumiy geografik tavsifi.
3. Boysun tumani umumiy geografik tavsifi.
4. Qumqo'rg'on tumani umumiy geografik tavsifi.
5. Termiz shahrini va Termiz tumani umumiy geografik tavsifi.
6. Denov tumani umumiy geografik tavsifi.
7.Sho'rchi umumiy geografik tavsifi.
8. Angor umumiy geografik tavsifi.
9. Bandixon tumani umumiy geografik tavsifi.
10. Muzrabod tumani umumiy geografik tavsifi.
11. Sherobod tumani umumiy geografik tavsifi.
12. Qiziriq tumani umumiy geografik tavsifi.
13. Oltinsoy tumani umumiy geografik tavsifi.
14. Sariosiyo tumani umumiy geografik tavsifi.
15. Uzun tumani umumiy geografik tavsifi.

## V. Ta'lim natijalari (Kasbiy kompetensiyalari)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

-Viloyat hududining tabiiy geografik o'rganilishi;

-Viloyat tabiatining o'ziga xos xususiyatlari va shakllanish omillari;

-Viloyat hududining geologik rivojlanishi, relyefi va orografiyasining shakllanishini;

-Iqlimi va ichki suvlarining shakllanishidagi qonuniyatlar;

| | |
|---|---|
| | -Tuproqlarining turlari va xususiyatlari, ularning tasniflanishi;<br>-Landshaftlarining xususiyatlari, ulardan xo'jalikda oqilona foydalanish va muhofaza qilish;<br>-Viloyat aholisining joylashishi, aholi soni. Aholi soning tumanlar aro keskin farqi, zichligi, etnik kelib chiqishi.<br>-Viloyat xalq xo'jaligi, uning tarkibiy qismi. Xalq xo'jaligining muhim sohalari. Viloyat xalq xo'jaligining respublika va MOD iqtisodiyotida tutgan o'rni.<br>-Viloyat qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tarmoqlari<br>-Viloyat dehqonchilik geografiyasi.<br>-Viloyat chorvachilik geografiyasi.<br>-Viloyat xalq xo'jaligining muhim tarmog'idin biri transport tarmog'i ekanligi.<br>-Viloyat xizmat ko'rsatish tarmoqlarining hududiy joylashishi va rivojlanishi, xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy tashkil etilishiga ta'sir etuvchi tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy omillar.<br>-Surxondaryoning istiqbollari va muammolari yuzasidan aniq malakalariga ega bo'lishi kerak. |
| | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari (Educational technologies and): methods:**<br>• *ma'ruzalar;*<br>• *amaliy ishlarni bajarish va xulosalash*<br>• *interfaol keys-stadilar;*<br>• *blits so`rov ;*<br>• *guruhlarda ishlash;*<br>• *taqdimotlar qilish;*<br>• *jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.* |
| | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar (Requirements for obtaining loans):**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni topshirish. |
| | |

| | |
|---|---|
| | **VIII. TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**<br>**Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Abdunazarov H.M., Umarova M.H. Surxondaryo geografiyasi. O'quv qo'llanma-TerDU MMM nashriyoti 2023 y.<br>2. Abdunazarov H.M., Umarova M.H., Esanov N. A. Surxondaryo viloyati geografiyasi.(2-qism) O'quv qo'llanma - "IMPRESS MEDIA" MCHJ. 2024.<br>3. Umarova M.H. Surxondaryo geografiyasi.-Darslik. Surxonnashr. 2024.<br>4. Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. T.: "Mumtoz so'z". 2010.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. O'zbekiston, 2016.<br>2. Mirziyoev SH.M.Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz. 1-tom Toshkent. O'zbekiston. 2017.<br>3.Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi.- T.:«O'qituvchi»,1996.<br>4.Рўзиев А. Сурхондарё вилояти.- Т.: «Жайхун», 1996.<br>5. Рўзиев А., Абиркулов К. Ўзбекистон иқтисодий географияси.- Т.: "Шарқ" 2000.<br>6. Soliev A. O'zbekiston geografiyasi T.: "Universitet", 2014.<br>7. Soliev A "Qishloq joylar demografiyasi" "Toshkent" 2005.<br>8. Soliev A. Nazarov M. "O'zbekiston qishloqlari" Monografiya "Toshkent" 2009.<br>9.Эргашев Ш. Ландшафты Сурхандарьинской области. Ташкент Фан.1974г.<br>10.Surxondaryo viloyatining o'lkashunoslik atlasi. –T. Yergeodezkadastr. 2015y.<br>**Axborot manbalar:**<br>www.Ziyo.net<br>www.stat.uz<br>surxonstat.uz<br>www.tersu.uz. |
| 7 | **Termiz davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.**<br>Fanning o'quv dasturi Termiz davlat universiteti o'quv -uslubiy Kengashining 2024 yil "26" 06 " dagi 11 -sonli yig'ilish bayonnomasi bilan tasdiqlangan. |
| 8 | **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>**Abdumo'minov Bahodir Odinayevich** – TerDU, Geografiya kafedrasi mudiri, g.f.f.d(PhD)<br>**Umarova Mahbuba Hamrayevna** - TerDU, "Geografiya" kafedrasi katta o'qituvchisi. |
| 9 | **Taqrizchilar:**<br>**Allanov Q.A**-Termiz davlat universiteti Geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.n.<br>**Sattorov A.U.**-Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti, g.f.n. |